



Phraseological units in the Uzbek language: analysis and classification

Shakhnoza JUMAKULOVA¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25
November 2025

Keywords:

phraseology,
phraseme,
phraseological collocation,
phraseological unity,
phraseological fusion.

ABSTRACT

This article provides a systematic examination of the structure, semantic nature, functional-stylistic features, and classification of phraseological units in the Uzbek language. The primary aim of the study is to reveal the semantic layers of phraseological expressions, identify their formal and semantic types, and present the richness of Uzbek phraseology from a scientific and theoretical perspective.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp105-108>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek tilida frazeologik birliklar: tahlil va tasnif

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

frazeologiya,
frazema,
frazelogik qo'shilma,
frazelogik butunlik,
frazelogik chatishma.

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tuzilishi, semantik tabiati, funksional-uslubiy imkoniyatlari va tasnifi tizimli ravishda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologizmlarning mazmuniy qatlamini ochish, ularning shakl va ma'no jihatidan turlarini aniqlash hamda o'zbek tilining frazeologik boyligini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yoritishdan iborat.

Фразеологические единицы в узбекском языке: анализ и классификация

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фразеология,
фразема,
фразеологическое

В данной статье системно рассматриваются структура, семантическая природа, функционально-стилистические возможности и классификация фразеологических единиц

¹ Doctoral student, Termez State University.

сочетание, фразеологическое единство, фразеологическое сращение.	узбекского языка. Основная цель исследования заключается в раскрытии смысловых слоёв фразеологизмов, определении их формально- семантических типов, а также в научно-теоретическом освещении фразеологического богатства узбекского языка.
--	--

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida milliy tilning o'ziga xosligini saqlab qolish, uni ilmiy asosda tadqiq etish va frazeologik birlikni tizimli tasniflash dolzarb masalalardan biridir. Chunki frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarini aks ettirgan barqaror til birliklari bo'lib, ular o'zbek tilining milliy ruhini saqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarning mazmuniy qatlamini ochish, ularni struktur-semantik jihatdan tavsiflash va tasnifni takomillashtirish bugungi o'zbek tilshunosligining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Mazkur omillar ushbu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilning boyligi va milliy o'ziga xosligini namoyon etuvchi eng muhim qatlamlardan biri frazeologik birliklar frazeologiya bo'limida o'rganilar ekan, ularning nazariy qismini ko'rib chiqish tadqiqotda ahamiyatli sanaladi. A.V. Kuninning qayd etishicha: "Sharl Balli *"phraseologie"* atamasini "o'zaro bog'liq iboralarni o'rganuvchi stilistikaning bo'limi" ma'nosida kiritgan" [5; 6]. Ushbu frazeologik birliklar haqida Sh. Rahmatullayev adabiyotlarda ular frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan atalishini leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishini ta'kidlaydi [3; 420]. A.V. Kunin frazeologiya masalasini lingvistik fan sifatida birinchi marta taniqli sovet tilshunosi professor E.D. Polivanov ko'targanligini va bu masalaga bir necha bor qaytganligini qayd etadi [5; 7]. Ushbu ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi, frazeologiya tadqiqot sohasi sifatida uzoq tarixga ega, lekin uning haqiqatan ham o'rganilmagan va yashirin tomonlari mavjud. Bu jihatlarni o'rganish frazeologiya haqidagi tushunchamizni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Sh. Rahmatullayevning qayd etishicha: "Frazema kamida ikki leksemadan tarkib topadi" [6; 6] hamda "Frazema ikki va undan ortiq leksemaning o'zaro semantik sintaktik bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'no kashf etishi bilan yuzaga keladi" [3; 420]. Demak, frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq leksemadan iborat bo'ladi, ammo ularning ma'nosi umumlashtirilgan holda o'rganiladi.

Tilshunos olim A.A. Abduazizovning izohlashicha: "Frazeologizmlar uch turli bo'ladi: frazeologik qo'shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar. Tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib, birikkan iboralar frazeologik qo'shilmalar deyiladi. Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib, umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi. Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi" [1; 79]. Shuningdek, olim ushbu frazeologik birliklarning har bir turini misollar berib tushuntiradi. A.V. Kuninning qayd etishicha, "V.V. Vinogradov frazeologik birliklarning uch turini ajratdi, ularni u rus tilida shunday ataydi: 1) фразеологические сращения, или идиомы; 2) фразеологические единства; 3) фразеологические сочетания" [5; 12]. O'zbek tilshunos olimi A.E. Mamatov V.V. Vinogradovning frazemalarni uch turda

tasniflaganligini, ya'ni frazeologik chatishma (фразеологическое сращение) yoki idioma, frazeologik butunlik (фразеологическое единство), frazeologik qo'shilma (фразеологическое сочетание) [2; 26] tarzida o'zbek tilida tarjima qilib, izohlaydi.

V.V. Vinogradov frazeologik chatishmalarining ma'nosi tarkibiy qismlarining ma'nosi bilan hech qanday bog'liqlik, hatto salohiyatga ega emasligini [4; 121] aks ettiradi. Shu sababli ham frazeologik chatishmalarda ishtirok etgan leksemalarning ma'nolari hisobga olinmaydi, ularning o'zaro munosabati kuzatilmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Frazeologik butunlikni N.M. Shanskiyning izohlashicha: "Frazeologik butunlik – bu semantik jihatdan bo'linmaydigan va yaxlit frazeologik ibora bo'lib, uning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan motivatsiyalangan bo'ladi, shuningdek, frazeologik birlikning ajralmas ma'nosi uni tashkil etuvchi so'zlarning ma'nolarining yagona umumlashgan ko'chma ma'noga qo'shib ketishi natijasida vujudga keladi" [7; 67]. Demak, frazeologik butunlikni tashkil etuvchi leksemalarning umumlashgan ma'nosi frazeologik birlikning majoziy ma'nosida aks etadi.

A.E. Mamatov frazeologik qo'shilmada bir komponentning ko'chma ma'noga ega bo'lishini va bu komponent ma'lum bir qurshovdagina frazeologik ma'no kasb etishini [2; 26] ta'kidlaydi. Shuning uchun ham frazeologik qo'shilmaning ma'nosida uning tarkibida qo'llanilgan leksemalardan biri o'z ma'nosini saqlashini hamda boshqa bir qismi esa ko'chma ma'noni ifodalashini ko'rish mumkin.

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi frazeologik birliklarni har tomonlama yoritish uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalaniladi. Deskriptiv (tasviriy) metod frazeologizmlarning tashqi tuzilishi, barqarorligi, komponentlar o'rtasidagi munosabatlar va lug'aviy xususiyatlarini bayon qilishda; struktur-semantik tahlil metodi iboralarning ichki mazmuniy tuzilmasini, metaforik asosini, ko'chma ma'no hosil bo'lish mexanizmini ochib berishda xizmat qiladi. Shuningdek, kognitiv-lingvistik yondashuv frazeologizmlarda mujassam bo'lgan konseptlar, milliy tafakkur modellari va obrazlarning til tizimidagi o'rnini aniqlashga imkon beradi.

Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada quyida bir nechta frazeologik birliklarni ko'rib chiqamiz:

Quvonchi ichiga (yoki diliga) sig'maydi frazeologik birligi "juda ham xursand, g'oyat shod" [11; 362] ma'nolarini ifodalaydi. Bu iboralarning tarkibida ishtirok etgan so'zlarning umumiy ma'nosi ko'chma ma'noga qo'shib ketishi natijasida ma'no anglashilgani bois V.V. Vinogradov tasnifiga ko'ra frazeologik butunlik turiga kiritish mumkin.

O'zida yo'q sevinmoq frazeologik birligi "nihoyatda, juda ham xursand bo'lmoq" [9; 470-471] ma'nosini ifodalaydi. Ushbu iborada *o'zida yo'q* ko'chma ma'noda qo'llanilib, *sevinmoq* o'z ma'nosini saqlab qolganligi uchun frazeologik qo'shilma sanaladi.

Ko'zi quvnamoq frazeologik birligi "xursand bo'lmoq" ma'nosini, *ko'zlari quvonchdan porlab ketmoq* frazeologik birligi "juda xursand bo'lmoq" ma'nosini ifodalaydi hamda ular tarkibida qo'llanilgan so'zlarning umumlashgan ma'nosi iboralarning ma'nosi bilan bog'liqligi sababli frazeologik butunlik hisoblanadi.

Xushvaqt bo'ling! iborasi mehmon kelganda aytiladigan "Xush kelibsiz!" iborasiga javoban aytiladi [10; 431]. Ushbu iborada *xushvaqt* hamda *bo'lmoq* so'zlarining ma'nolar umumlashmasi majoziy ma'noda ifodalanadi, shu tufayli u frazeologik butunlik turiga kiritiladi.

Baxtdan ko'rdim (baxtimdan ko'raman) frazeologik birligi “tavakkal, nima bo'lsa bo'lar” [8; 178] ma'nolarini anglatadi. Bu ibora frazeologik chatishma hisoblanadi, chunki uning ma'nosi bilan unda qo'llanilgan so'zlarning ma'nosi mos kelmaydi.

Tahlil natijalari o'zbek tilida quvonch, xursandlik va shodlik kabi emotsional holatlar hamda ichki kechinmalarni ifodalovchi metaforik birliklar orqali tasvirlanishini ko'rsatadi. Frazeologik birliklarning ma'nosini yuzaga keltiruvchi semantik mexanizm asosan umumlashgan obraz, majoziy ifoda va ko'chma ma'no asosida shakllangan. Vinogradov tasnifi bo'yicha frazeologik birliklarning turlicha guruhlariga mansubligi ular tarkibidagi so'zlar bilan umumiy ma'nosi o'rtasidagi bog'lanish kuchiga qarab farqlanishini namoyish etadi. Masalan, “quvonchi ichiga sig'maydi”, “ko'zi quvnamoq” kabi birliklarda so'zlar ma'nosi frazeologik birlik ma'nosi bilan uyg'unlashgan bo'lsa, “baxtdan ko'rdim” frazeologik birligida bu bog'liqlik sust bo'lganligi sababli chatishma turiga mansubligi aniqlanadi. Shu tariqa, frazeologizmlar o'zbek tilida his-tuyg'ularni ifodalashda kuchli ekspressiv vosita bo'lib, ularning semantik strukturasi milliy tasavvurlar, madaniy kodlar va obrazli fikrlash o'z aksini topadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlil o'zbek tilidagi quvonch semasiga oid frazeologik birliklar semantik jihatdan boy, ekspressiv kuchga ega va milliy madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etuvchi barqaror til birliklaridan ekanini ko'rsatadi. Ularning tarkibiy tuzilmasi, ma'nosi va tasnifiga ko'ra farqlanishi frazeologizmlar ichki semantikasining murakkabligini tasdiqlaydi. Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, xursandlik va shodlik holatlari o'zbek tilida ko'proq metaforik obrazlar orqali ifodalanadi, bu esa xalqning emotsional tajribasini til vositasida aks ettiradi. Mazkur xulosa frazeologik birliklarni yanada chuqurroq o'rganish, ularni boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan qiyoslash va korpus asosida qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilish istiqbollarini ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: oliy o'quv yurtlarining fil. fak. talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.
2. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi: o'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2019. – 260 b.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili: darslik. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
4. Виноградов В.В. Избранные Труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – 312 с.
5. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – Москва: Высш. шк., Дубна: Изд. Центр «Феникс», 1996. – 200 с.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992. – 125 б.
7. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец. – Санкт-Петербург: – Специальная Литература, 1996. – 192 с.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (1-жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2006. – 679 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (3-жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2006. – 622 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (4-жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2008. – 443 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5-жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2006. – 571 б.